

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQ OG'ZAKI IJODI
NAMUNALARI BILAN TANISHTIRISHDA MULTIMEDIALI
ILOVALARDAN FOYDALANISH**

Onorova Umidaxon Kozimjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti

Ta'lism va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lism) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Xalq og`zaki ijodi namunalari boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun ulkan tarbiya vositasi hisoblanadi. Uni multimediali ilovalar yordamida tanishtirish ta`lim samaradorligini oshirishi shubhasiz. Maqolada shu haqda so`z bo`radi.

Kalit so‘zlar: Folklor, madaniyat, ma’naviyat, urf-odat, rivoyat, afsona, iste’dod.

KIRISH

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib, yangilanib, xalq madaniyati, ma’naviyatini o‘z mazmunida ifodalab kelayotgan bebaho merosimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham Mamlakatimizrahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoevning respublikamizdagi quyidagi:

«Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ijodiy tashkilot xodimlari, adabiyotchilar, san’at ahliga qarata aytgan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi», degan gaplari bevosita folklorga ham taaluqlidir (Mirziyoev, 2017).

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ma’lumki, yosh avlodni yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lib yetishuvida eng yaxshi urf-odatlar, udumlar, an’analar, xalq odobnomasining ahamiyati katta. Chunki kimda – kim yoshlikdan xalqimizning asrlar mobaynida sinovdan o‘tgan, xalqchil hayotiy odatlarining pandnomasini yaxshi o‘zlashtirib olsa, ota- bobolarimizning pand nasihatlariga va o‘gitlariga quloq solsa, unday inson elda baland obro‘ topadi.

Biz, ushbu qarashlardan kelib chiqqan holda muhim bir narsaga e’tiborimizni qaratmoqchimiz. Ma’lumki, folklor xalq hayotining barcha qatlamlari bilan uzviy holda yashab keladi, uni tinglovchilardan ayrim holda tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. Doston, ertak yoki xalq qo‘srig‘ining tinglovchisi ayni vaqtida folklor tashuvchisi hamdir. Ya’ni folklor faqat dostonchi, ertakchi, qo‘sriqchi umuman aytganda ijrochi

bilangina emas, folklor tashuvchilari bo‘lgan tinglovchilari bilan ham tirikdir. Muayyan bir folklor asarini tinglayotgan tinglovchi uni o‘zlashtiradi, qayta-qayta eshitaver-gach, uning ma’lum qismlarini ijro etish malakasini ham hosil qiladi. Xatto, eng iste’dodli va zukko tinglovchilar, hozirgi kun iborasi bilan aytsak folklor tanqidchisi darajasiga ko‘tariladi. Ustoz folklorshunoslarimiz asarlarida qayd etilganidek, kamolga yetgan shogirdlarni mustaqil doston aytishga yo‘llashdan oldin ular katta shoirlarning imtihonidan o‘tgan. Bu katta shoirlar bilan bирgalikda tinglovchilar ham o‘z baholarini bergen. Shunday ekan, folklorga xos noyob xususiyat sifatida bu ijodiy jarayonda ijrochi- ijodkorlar bilan bir paytda tinglovchilar ham ishtirok etganligini, tinglovchilar xalqning asrlar davomida ijro etilib, sayqal topib kelayotgan namunalarini bedahl saqlashga, rivojlantirishga hissa qo‘shganlarini aytib o‘tish zarur bo‘ladi.

Boshlang`ich sinf o‘qituvchilari ta’lim-tarbiya jarayonida harakatli o‘quv qurollari, elektron doska, audioqurilmalar, videoproektorlar bilan bir qatorda, dars mavzusi bilan bog‘liq hududga ekskursiya, tabiat qo‘ynida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishdan samarali foydalanayotganliklari aniqlandi [3]. Videoproektor – o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy vositalardan biri. Undan foydalanish uchun kompyuter qurilmalari talab etiladi. Oldindan tayyorlangan o‘quv materiallarini kompyuterga ulangan videoproektor orqali maxsus ekranga taqdimot etish mumkin. Kompyuter xotirasidagi yoki kompakt disk va oddiy disketadagi materiallarni videoproektor orqali ta’lim oluvchilarga namoyish qilish mumkin. Videoproektor kodoskop kabi ta’lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Asosiy qulayligi shundaki taqdim etaladigan metariallarni kompyuterda ta’lim beruvchi o‘zi tayyorlashi mumkin yoki professional darajada tayyorlangan elektron dars-likdan foydalanish mumkin.

Audio va video axborotdan bir vaqtida foydalanish xotirjamlikni 40-50% gacha oshiradi. Muayyan materialni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan vaqt o‘rtacha 30% tejaladi va olingan bilimlar xotirada ancha uzoq saqlanadi. Boshlang`ich sinfdagi multimedya texnologiyalaridan foydalanilganda dars strukturasi tubdan o‘zgarmaydi. Bu hali barcha asosiy bosqichlarini saqlab qoladi, faqat ularning vaqt xususiyatlari o‘zgaradi [1].

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa o‘rnida aytib o‘tishni istardikki, mamalakatimizda sog‘lom avlod ma’naviyatini shakllantirish va tobora boyitib borishi yo‘lida olib borilayotgan ezgu ishlar samarali bo‘lishini ta’minlashga, - qaysi sohada ishlashimizdan qat’i nazar, - barchamiz bab-baravar burchlimiz.

Folklor qahramonlari badiiy obrazlar bo‘lib yashash bilan birga, xalqimizni namoyon qiluvchi timsollar va ramzlarga ham aylangan. Milliy timsollar va

ramzlarning har biri milliy g‘ururimizni yuksaltirishga xizmat qiladi. Ularning har biri katta bir darslikdir. Texnogen sivilizatsiya insoniyat o‘z boshidan kechiradigan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichi, ammo uni inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qildirish insonga, insoniyatga bog‘liqdir. Texnogen sivilizatsiyaning kelajagi uni boshlang‘ich sinflardanoq ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishning qanchalik puxta o‘ylanganligiga bevosita bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mavlyanov A., Abdalova S., Yusupova L. Pedagogik texnologiya, ta’lim jarayoni va sifatini boshqarishga oid ayrim so‘zlarning izohli lug‘ati . – Toshkent: 2010. 6-b.
2. Demidenko E.S. Texnogen jamiyat // Globalistika: Entsiklopediya. - M.: 2013 yil.
3. Abdusalamov S. M. va boshqalar XALQ AMALIY SAN’ATNING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O’RNI // XALQARO INNOVATSIYA TADQIQOTLARI. - 2017. - S. 374-376.
4. Eshnaev N. J. Ma’naviy-axloqiy muammolarni ilmiy tadqiq etishning o‘ziga xos jihatlari // Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. Special Issue 1.